

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Nasritdinova	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatlari rivojida imkoniyatlari	312
G.Mo'minova	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish	390
N.Mamatqulova	
Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	321
U.O'rishov	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari	325
S.Uraimov	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish	331
I.I.Toshpulatov	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi	334
F.U.Mirjavharova	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	337
M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti.	341
I.I.Muhitdinov	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari	346
T.X.Tashmetov	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari	350
D.B.Makhametova	
Ta'limdagi muqarrar yangi media	355
A.T.Akbarov	
Oilada kattalar sportini tashkillash	359

FANIMIZ FIDOYILARI

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga	364
--	------------

ESTRADA JAZ MUSIQASI EVOLYUTSIYASI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**ЭВОЛЮЦИЯ ЭСТРАДНО-ДЖАЗОВОЙ МУЗЫКИ, ЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА****EVOLUTION OF VARIETY-JAZZ MUSIC, ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS****O'rishov Umidjon Shovkatjon o'g'li¹****¹O'rishov Umidjon Shovkatjon o'g'li**

– O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti magistri

Annotatsiya

Mazkur maqolada estrada jaz san'ati tarixiy jarayonlari, undagi ommalashgan uslublarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy omillar va ularning asoschilari, mohir musiqachilar borasida so'z boradi. Shuningdek zamonaviy estrada jaz san'ati sohasiga asos solingan davrdan buyon undagi mavjud janrlar rivojiga xissa qO'shgan mahoratli jaz ijrochilari faoliyati yoritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются исторические процессы эстрадно-джазового искусства, социальные факторы, обусловившие появление в нем популярных стилей, и их основатели, искусные музыканты. Также обсуждается творчество искусных джазовых исполнителей, внесших свой вклад в развитие существующих жанров в области современного эстрадно-джазового искусства.

Abstract

This article discusses the historical processes of pop jazz art, the social factors that led to the emergence of popular styles in it, and their founders, skilled musicians. The work of skilled jazz performers who have contributed to the development of existing genres in the field of modern pop-jazz art is also discussed.

Kalit so'zlar: estrada jaz san'ati, Afro-amerikancha folklor, klassik jaz, Nyu-Orlean, Chikago jaz, sving, Kansas-siti uslubi, Bi-bop, kul, progressiv jaz.

Ключевые слова: Поп-джаз, афро-американский фольклор, классический джаз, Новый Орлеан, чикагский джаз, свинг, стиль Канзас-Сити, би-боп, пепел, прогрессивный джаз.

Key words: Pop Jazz, Afro-American Folk, Classical Jazz, New Orleans, Chicago Jazz, Swing, Kansas City Style, B-bop, Ash, Progressive Jazz.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimiz madaniyatining tiklanishi va yangi shakllarda rivoj topishi o'sib kelayotgan yosh avlodga katta ishonch bildirilayotganini – mamlakatning intellektual, kasbiy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga barcha resurslar safarbar etilayotganini e'tirof etishimiz joiz. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi tub o'zgarishlar bosqichlarini boshdan kechirayotgan ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini guvohi bo'lmoqdamiz.

Mamlakatimizda mumtoz musiqamiz shakl va janrlari borasida bilimlar doimiy ravishda isloh qilinib kelmoqda, lekin zamonaviy musiqa, ya'ni jaz, rok va pop musiqa janrlari borasida bunday deya olmaymiz, sababi ular kam o'rganilgan sohalar qatorida qolmoqda.

Yestrada jaz sohasiga to'xtalar ekanmiz, AQShda ommalashgan san'at cholg'u hamda vokal ijrochiligi yo'nalishlarida rivoj topgan. Mamlakatimizda murojaat qilingan ilmiy tadqiqotlarning asosini estrada xonandaligiga bag'ishlangan dissertatsiyalar tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bunday manbalar qatoriga o'zbek musiqashunoslarining yirik tadqiqotlaridan O.Bekovning "Sovremennaya uzbekskaya estradnaya pesnya v konteskte muzikalnoy kulturi Uzbekistena" ilmiy ishi (kompozitorlik ijodiyotida estrada qo'shiqlarining o'rni); L.Yusupovning "Osnovniye etapi stanovleniya i razvitiya uzbekskoy muzikalnoy estradi" nomzodlik dissertatsiyasi (o'zbek estrada musiqasining tarixiy bosqichlari) D. Mullajonovning "1990-yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi" nomzodlik dissertatsiyasi (ijro masalalari); G.Tursunovanning "Karim Zokirov va uning sulolasi – XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida" nomzodlik dissertatsiyasi (musiqiy

sulolalar masalalari); yirik o'zbek musiqashunoslaridan T.Gafurbekov, A.Abdullayev, T.YanovYanovskayalarning estrada musiqasidagi muammoli masalalariga bag'ishlangan maqolalari[1;4];

MDH va G'arb davlatlari san'atshunosligida hurmatga sazovor bo'lgan nashrlardan – musiqashunoslar S.Gilevning “Besedi o djaze”, Dj.Kolliyerning “Stanovleniye djaza”, V.Konenning “Rojdeniye djaza”, V.Sirovning “Stileviye metamorfozi roka ili put k tretyey muzike”, A.Tsukerning “I rok, i simfoniya...” monografiyalari (jaz va rok musiqasi uslublarining trasformatsiyasi, uslublararo bog'lanishi va yangi turlari, shakllari, janrlarining yaralishi, taniqli guruhlar tomonidan yaratilgan asarlar, ularning uslubiy jihatlari chuqur yoritilgan); A.Soxorning “O massovoy muzike”, “Pesnya vospitivayet nravi” ilmiy maqolalari (ommaviy musiqa janrlari va muammolari haqida so'z yuritilgan); kompozitor va rok ijrochi A.Kozlovning “Rok: istoki i razvitiye”, musiqiy jurnalist J.Paskalning “Illyustrirovannaya istoriya rok-muziki” publistik asarlari (rok musiqasining shakllanishi, rivojlanish etaplari, uning uslub va yo'nalishlari, taniqli ijrochilari haqida so'z yuritiladi); musiqiy tanqidchi A.Troitskiyning ommaviy musiqa masalalariga bag'ishlangan maqolalari va tahliliy musiqashunoslik adabiyotlari va nashrlarini kiritish mumkin.

Jaz – bu XIX-XX asrlar mobaynida AQShda, Afrika va Yevropa musiqa madaniyatlarining o'zaro qorishuvi natijasida yuzaga kelgan “yengil” musiqa qatlamlaridan biri bo'lib, u afrikacha ritmlar va yevropacha garmoniya sintezidir. Jaz musiqiy tilining o'ziga xos qirralari – bu sinkopalangan ritmika va ritmik faktura ijrosi usullarining ajoyib majmuasi – sving; septakkordlar tizimidan tashkil topgan garmoniya; noyob tovushqator – blyuz ladi va improvizatsiya (badiha)dan iborat.

Jaz musiqasining yaralishiga XVII asrdan boshlab Shimoliy Amerika qit'asida hukum surgan qullik davri sabab bo'ldi. Bu esa turli irqiy va etnik xalqlarning madaniy va maishiy hayotining o'zaro qorishuviga olib keladi. Bir biriga tubdan yod bo'lgan Yevropa va Afrika xalqlarining madaniyati integratsiyasi musiqada aksini topdi va jazning yaralishiga zamin yaratildi. Shu davrdan boshlab afroamerikancha folklor musiqasi shakllana boshlandi.

Jaz negriyancha folklor: mehnat qo'shiqlari, diniy qo'shiqlar – sperichuyel, gospel, blyuz; oq qishloq va shahar folklori: kantri, jiga, regtaym, bugi-vugining uyg'unlashuvi asosida yuzaga kelgan. Asta-sekin nafaqat Afrika xalqlari orasida, balki Amerikaning oq tanli aholisi (ispan, ingliz, frantsuz va h.k.) o'rtasida ham madaniyatlar integratsiyasi yuz berdi. Xalqlararo madaniyat sintezi afroamerikacha madaniyatning, xususan afroamerikacha musiqa madaniyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Mintaqaga keltirilgan qullar o'zlari bilan turli zarbli cholg'ular – shu jumladan idiofonlar (qo'ng'iroq, shiqqildoq va b.q.), sodda tuzilishga ega bo'lgan naylar, turli damli cholg'ular (dengiz chig'anoqlaridan, hayvonlar shohidan yasalgan) va torli cholg'ular (banjo)[2]lar kabi musiqiy cholg'ularni olib kelganlar. Tabiiyki, jaz musiqasining shakllanishida bu cholg'ular muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda professional musiqa qatoridan o'rin olgan jaz musiqasi XIX asrning ohirida folklor musiqasi ko'rinishida, XX-asrning boshlarida an'anaviy musiqa ko'rinishida, XX-asrning 40-yillariga kelib esa professional musiqa toifasiga qo'shildi.

Albatta, musiqaning bunday rivojini turli xalqlar musiqiy me'rosida kuzatishimiz mumkin. Jaz musiqasi dunyoning turli qismlaridan yaralgan va rivoj topgan turli xalqlar musiqa madaniyati an'analarini o'zida aks ettirgani uchun ham noyob xisoblanadi. Jaz musiqasi xususida so'rovnomalar bilan jamiyatimizning turli qatlam, soha vakillaridan fikr yig'ar ekanmiz, so'rovnomada ishtirok etgan turli soha apponenrlardan estrada jaz musiqasi tinglashga yengil, ostida fikr yuritishda ilhomlantiruvchi jo'shqin, ijrochi uchun esa murakkab degan deyarli bir xil ko'rinishdagi javoblarni oldik.

An'analar jazning rivojida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, jaz musiqasining rivojida turli jaz maktablarining shakllanishi, jaz virtuozaqlarining ijrosiga tahlid qilish va ularning ijrosi asosida yangicha usublarning yaralishi an'anaviy jazning asosi bo'ldi.

Ma'lumki, xalqning ijtimoiy hayot tarzida yuz berishi kutilayotgan tub burilishlarni inson ongidan uning ijro etayotgan musiqiy materialida aks etadi. Bu fikrimizga misol Yevropa musiqasida romantizm oqimining paydo bo'lishida L.V.Betxoven ijodida turtki bo'lgan uning Frantsuz hurriyati g'oyasi bilan yo'g'rilgan asarlari, Rossiyada realism oqimining vujudga kelishida Dekabristlar qo'zg'aloni va jaz musiqasining Nyu Orleanda shakllanishiga turtki bo'lgan sabab 1898 yilda tugagan Amerika-Ispaniya urushidir.

Urush tugagach xarbiylar, shu jumladan xarbiy orkestrlar Nyu-Orlean portidan uylariga tarqatildi. Shu bois Nyu-Orlean bozorlarida juda arzon narhga harid qilsa bo'ladigan haqiqiy musiqiy cholg'ular sotila boshlandi. Bu hodisa "bir qozonda qaynayotgan yevropalashgan afrikacha, afrikalashgan yevropa musiqa [2]" maskanida yashovchi shahar aholisi uchun o'ta moil edi. An'anaviy jaz musiqasining birinchi uslubi XX asrning boshlarida, AQShning Luiziana shtatining Nyu-Orlean shahrida yangray boshladi. Bu musiqa faqatgina afroamerikaliklar orasida ommalashgan bo'lib, oq tanlilar tomonidan irqiy musiqa sifatida tan olinmagan.

Birinchi rasmiy jaz musiqachilari oq tanli musiqachilar bo'lgan. 1917 yilning fevral oyida taniqli "Viktor" ovoz yozish firmasining Nyu-Yorkdagi studiyasida Nyu Orleanlik beshta oq tanli musiqachi o'zlarining birinchi jaz gramplastinkasini yozadilar. Ushbu audioyozuv paydo bo'lguniga qadar jaz musiqa folklori bo'lib qolavergan. Magnit tasma chiqarilgach esa u bir necha hafta ichida butun Amerikani hayratga solgan. Audioyozuv afsonaviy "Original dixiyeland jazz band" guruhiga tegishli bo'lib, guruh ijrosiga "Diksilend" atamasi beriladi va xanuzgacha bu atama "oq jaz musiqasi"ga nisbatan qo'llanadi.

Odatda "Nyu-Orleancha jaz" deb, 1900 va 1917-yillar orasida Nyu-Orlean shahrida jaz ijro etgan musiqachilar uslubiga aytilgan.

Birinchi jaz uslubi uch shakldagi asarlarga asoslangan. Bular – marsh (ko'proq afrikacha marosim bayramlarida ijro etilgan), regtaym (kreol[3] orkestrlari tomonidan ijro etilgan) va blyuz (negrityan aholisining folklor musiqasi). Asarlar, ayniqsa ochiq havoda ijro etilgan marshlar, kornet, trambon, voltorna, klarnet va fleyta pikkalo. Ritm seksiyada esa baraban, tuba cholg'ulari yangragan. Binolar ichida ijro etilgan vaqtda esa skripka, fortepiano va kontrabas cholg'ulari qo'shilgan. Bugunda jaz ramziga aylangan saksafon esa ancha keyin ihtiro etilgan. Jazning shakllanish davrida ijrochilari improvizatsiya tushunchasiga ega emasdilar. Ular tayyor kuy ohangiga biroz bezak bergan holda, yoki invariant shaklida ijro etardilar.

Nyu-Orleancha jazning o'ziga has hususiyatlari: regtaym sinkopali ritmikasin "qo'pol", bo'rttirilgan ijrosi, surdina va boshqa moslamalar bilan tovush tembrini o'zgartirish, kuyni damli cholg'ular vibratosi bilan yakunlash o'sha davrlarda paydo bo'ldi. Vibratoni tez ijro etish natijada asardagi metro-ritm buziladi va kelajakda jazning muhim tashkiliy qismi – svingning paydo bo'lishiga olib keldi.

Nyu-Orleancha jaz belgilari: sinkopali ritm, jamoaviy improvizatsiya, cholg'u tovushlariga yangicha tembr berishdir. Nyu-Orleancha jaz asoschilari deb Baddi Bolden, Vili «Bank» Djonson, Djo «King» Oliver, Sidney Beshe, Kid Ori, Lui Armstrong, Kid Rena, Djelli Roll Morton, Alfons Pikularni tilga olsak bo'ladi.

Menistrel-shoular XIX-asrda AQShda shakllangan, bunda oq tanli mashshoqlar qora tanli musiqachilarga tahlid qilib, atayin yuzlarini qora rangga bo'yagan holda qora tanli musiqachilarning ijro jihatlari, hatti-harakatini o'hshatgan holda tamoshalar ijro etilar edi. Qizig'i shundaki, menistrel shoularda keyinchalik qoratanlilar oq tanlilarni o'xshatishga harakat qilishadi[4;400]. Jiga va regtaym kabi afro-amerika folklori musiqiy oqimlarining menistrel-shoulari namoyishi barcha joylarga tez tarqalib, jazning ommalashuviga zamin yaratdi.

XIX asrning oxirlaridanoq Nyu-Orleandan Sent-Polga Missisipi daryosi bo'yab qatnaydigan kema safarlari ommalashib bordi, ularning dastlab dam olish kunlarida, keyinchalik esa butun hafta davomida qatnashi yo'lga qo'yildi. 1900 yildan e'tiboran bu sayr kemalarida Nyu-Orlean orkestrlari chiqishlar qila boshladilarki, ularning musiqasi passajirlar uchun birmuncha yoqimli ko'ngil yozish turi bo'lib qoldi. Aynan mana shunday kontsertlar Biks Beyderbek, Jess Steysi va boshqa ko'plab jaz musiqachilari uchun ijodiy debyut bo'lib qoldi. Shular qatorida "jaz musiqasi qiroli" Lui Armstrongning ijod qirralari ham sayohat reystrarida charhlendi.

Yana bir mashhur marshrut Missuridan Kanzas-Sitigacha borar edi. Afroamerika folklorining mustahkam ildizlari tufayli Kanzas-Siti shahrida blyuz rasmiylashtirildi va Nyuorleanlik jazchilarning virtuoz ijrosi o'ziga rivojlanish uchun juda yaxshi muhit topdi.

Jazning rivojlanishida Nyu-Orlean bilan bir qatorda Sent-Luis, Kanzas-siti va Memfis kabi shaharlar ham katta ahamiyat kasb etdi. Regtaym XIX asrda aynan Memfisda paydo bo'ladi va shu yerdan 1890-1903 yillar davomida butun Shimoliy Amerika mintaqasiga tarqaladi.

1920-yillar boshiga kelib Chikago shahri jaz musiqasining rivojlanish markaziga aylandiki, unda AQShning turli joylaridan kelgan ko'plab musiqachilarning say'-harakatlari bilan "chikagocha jaz" nomini olgan uslub yaratildi[1;13].

Garchi jaz tarixi Nyu-Orleanda boshlangan bo'lsa-da, haqiqiy jaz musiqasi Chikago shahrida yangray boshladi. 1920-yillardan boshlab yangiorleanlik jaz ustalarining Nyu-Yorkka ko'chib o'tishlari jaz musiqachilarining Janubdan Shimol tomon doimiy harakati tendentsiyasini belgilab berdi. Eddi Kondon va Jimmi Mak Partlandlarning jamoalari esa Nyu-Orlean maktabini qayta tiklashga yordam berdi. Nyu-Orlean mumtoz jaz uslubi sarhadlarini kengaytiruvchi boshqa mashhur chikagoliklar qatoriga pianinochi Art Xodes, barabanchi Barrett Dims va klarnetchi Benni Gudmanlarni kiritish mumkin. Nyu-Yorkka ko'chib o'tgan L.Armstrong va B.Gudman u yerda jahonning haqiqiy jaz poytaxtini yaratdilar. Bu paytda Chikago asosiy ovoz yozish markazi bo'lib qoldi, Nyu-York esa "Minton Pleyxaus", "Kotton Klav", "Savoy" va "Villij Venjuard" kabi afsonaviy klublar, shuningdek, "Karnegi Xoll"dek arenaga ega bo'lib jazning bosh kontsert maydoniga aylandi.

Shuhrat qozongan jaz bendlar tinglovchilar tarqalgach, tong otguncha musiqiy bellashuvlar olib borishar edi. Bunda bendlarning yetakchi musiqachilari aql bavor qilmaydigan ijroni namoyish qilib, raqibni yengishga intildilar. Albatta, bunday bellashuvlar Chikagocha jazning uslubini belgilab beradi.

Chikagocha jazda guruhlar uyg'unligi emas, balki, yakkaxonning virtuoz ijrosi ahamiyatga egadir. Jazning Chikagodagi davrida Nyu-Orleancha jazdan farqli o'laroq, yangi cholg'ular tembrlari yangray boshlaydi. Bu esa haqiqiy jazning tebr tovushqatorini aniqlab beradi. Masalan, texnik jihatdan cheklangan bas cholg'usi – tubaning o'rnini harakatchan kontrabas, banjo cholg'usini ommalashgan gitara egallaydi va aynan shu davrda jaz musiqasiga saksofon cholg'usi kirib keladi.

Big-bendning joriy bo'lgan mumtoz shakli jazda 1920-yilning boshlaridan ma'lum. Bu shakl o'z dolzarbligini 1940-yilning ohirlariga qadar saqlab qolgan. Big-bend yo'lga kirgan musiqachilar qoidaga ko'ra o'smirlik yoshidanoq mashg'ulotlarda yoki notaga qarab o'rganilgan to'laqonli partiyalarni ijro etganlar. Big-bend o'z davrining ommaviy musiqasi bo'lib, 1930 yilning o'rtalarida o'zining shuhrat cho'qqisiga erishadi. Bu musiqa sving raqslari bilan yoppasiga shug'ullanishda asosiy manbaga aylandi. Jaz-orkestrlarining mashhur rahbarlari: Dyuk ellington, Benni Gudman, Arti Shou, Glen Miller, Charli Barnet va b. nafaqat radio orqali, balki barcha joylardagi raqs zallarida yangragan asl xit-parad kuylarini yaratib, ularga sayqal berib (aranjirovkalab), gramplastinkalarga yozdirdilar. Ko'plab big-bendchilar o'z badihachi-yakkaxon (improvizator-solist)larini "orkestrlar jangiga" aylanadigan kontsertlarda namoyish etardilar.

B.Raybern, S.Ra, O.Nelson, Ch.Mingus va b. rahbarligidagi ansambllar garmoniya, cholg'ulashtirish va improvizatsion erkinlik borasida yangi tushunchalarni tadqiq etdilar. Bugun bigbendlar jaz hosil qilishdagi standart bo'lib qoldi. "Linkoln Sentr" nomli Jaz Orkestri, "Karnegi Xoll"dek Jaz Orkestri va Chikago Jaz Ansambli toifasidagi repertuarli orkestrlar big-bendcha kompozitsiyalarning original aranjamentlarini muntazam ravishda ijro etadilar.

O'z faoliyatini Kanzas-sitida, U.Peyj va B.Mouten orkestrlarida boshlagan buyuk K.Beysi ijodi aynan shu yerda kristallandi. Bu orkestrlar Kanzas-siti uslubining asl namoyandalari bo'lib, yuqorida qayd etilgan orkestrlar ijrosida shakllangan va "shahar blyuzi" nomini olgan blyuzning o'ziga xos shakli uning (Kanzas-siti uslubining) asosi bo'lib qoldi.

Kanzas-siti uslubini jaz musiqasining rivojida juda muhim ahamiyat kasb etdi. U jazning murakkablashishi va mukammallashishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bi-bop – XX asrning 40-yillarida joriy etilgan jaz uslubi bo'lib, u o'zining tezkor sur'ati va kuy o'rniga garmoniya o'yinlariga asoslangan murakkab badiha (improvizatsiya)lari bilan ta'riflanadi. Bi-bop jazda inqilob yasadi. Bu uslub asoschilari: saksofonchi Charli Parker, trubachi Dizzi Gillespi, pianinochilar Bad Pauyell va Telonius Monk, barabanchi Maks Rouchlardir. Bi-bop bosqichi jazdagi urg'uning sezilarli ravishdagi aralashuvi bo'lib qoldi: bu ommaviy raqs bop musiqadan birmuncha yuksak, badiiy intellektual musiqa bo'ldi.

Yangi uslubning asosiy farqi murakkablashtirilgan va o'zgacha tamoyillar asosida qurilgan garmoniya edi. Ijroning o'ta tezkor sur'ati Ch.Parker va D.Gillespi tomonidan faqatgina professional ijrochilarni musobaqaga chorlashni o'zida maqsad qilgan. Bi-bopdagi improvizatsion fraza sinkopalangan hissadan, yoki ikkinchi hissadan boshlanishi mumkin; ko'pincha fraza mashhur mavzu yoki garmonik panjaradan ustun kelgan.

Bi-bop asoschilaridan faqat D.Gillespi taqdiri omadli bo'ldi. U o'z eksperimentlarini davom ettirib, kubano uslubiga asos soldi, lotincha jazni ommalashtirib, Lotinamerika jazining yulduzlari – A.Sandoval, P.De.Rivero, Ch.Valdes va boshqa ko'plab musiqachilarni jahonga tanitdi.

Bi-bop uslubi musiqachidan virtuozlilik va murakkab garmoniyalarni bilishni talab etgan. Jaz sozandalari tez shuhrat qozonganlar. Ular yuqori murakkablikka ega bo'lgan akkordlarning o'zgarishiga mos ravishda "zigzag" va "aylanmalar"ni yakunlab beruvchi kuylarni yaratganlar. Yakkanaovozlar o'z improvizatsiyalarida birmuncha keskin jarangli ekzotik musiqani yaratgan holda tonallik jihatdan dissonans (noohangdosh) notalarni qo'llaganlar. Bi-bop kvartet va kvintet toifasidagi kichik formatli guruhlar ijrosiga ko'proq mos keladi, chunki ular ham iqtisodiy, ham artistizm sabablari nuqtai nazaridan mukammal bo'lib chiqdi.

Bi-bop erasi bilan birga yangi jaz yulduzlari ham san'at olamiga kirib keldilar, ular orasida Klifford Braun, Freddi Xabbard va Maylz Devis kabi trubachilar, Dekster Gordon, Art Pepper, Jonni Griffin, Pepper Adams, Sonni Stitt va Jon Koltreyn singari saksofonchilar va Jey Jey Jonsondek trombonchi bor edi.

1950 va 1960 yillarda bi-bop bir nechta mutatsiyadan o'tdi, ular orasida xard-bop, sovuq jaz va soul-jaz kabi uslublar bor edi. Bir yoki bir nechta (odatda uchtdan oshmagan) damli cholg'ular, fortepiano, kontrabas va barabanlardan iborat kichik musiqiy guruh (kombo) formati hozirgi kunga qadar standart jaz tarkibi bo'lib qolmoqda.

Bi-bopning yuzaga kelishi bilan parallel ravishda jaz muhitida yana bir yangi uslub – progressiv jaz rivojlanadi. Mazkur uslubning asosiy farqi big-bendlarning qotib qolgan qolipidan va 1920 yillarda Pol Uaytmen tomonidan kiritilgan simfojaz kabi eskirgan usullardan chiqib ketishga intilish edi. Bopperlardan farqli o'laroq progressiv ijodkorlari o'sha davrda joriy bo'lgan jaz an'analarni keskin tarzda rad etishga intilmaganlar.

"Progressiv" konsepsiyasining rivojiga pianinochi va dirijyor Sten Kenton katta hissa qo'shdi. 1940-yillar boshiga mansub progressiv jaz aynan uning dastlabki ishlaridan boshlanadi. S.Kenton rahbarligidagi birinchi orkestr tomonidan ijro etilgan musiqi S.Raxmaninovga yaqin bo'lsa, uning kompozitsiyasi esa kechki romantizm qirralarini o'zida mujassam etgan edi.

1950-yillar oxiridan boshlab trubachi M.Devis va tenorsaksofonchi D.Koltreyn kuy va improvizatsiyaga yondashuv sohasida bevosita mumtoz musiqadan o'zlashtirilgan ladlar qiyofasida novatorlik eksperimentlarini amalga oshirdilar. Bu musiqachilar kuyni shakllantirish uchun akkordlar o'rniga kichik miqdordagi spetsifik laddan foydalana boshladilar. Natijada barqaror garmoniya va deyarli butkul kuyga qurilgan jaz shakli yuzaga keldi.

Vazmindan tezkorgacha bo'lgan sur'atlar qo'llanilar, ammo musiqi o'zgaruvchan, beqaror xarakterga ega bo'lib, uni shoshmaslik hissi ajratib turar edi. Birmuncha ekzotik effekt yaratish uchun ijrochilar o'z musiqalariga "modal" asos sifatida ba'zan noovro'pacha gammalardan (masalan, hindcha, arabcha, afrikacha) foydalanganlar. Modal jazning noaniq tonal markazi jaz tarixining keyingi bosqichida faoliyat yurita boshlagan eksperimentchilar, xususan tenor-saksofonchi Faro Sandersning fri-jaz parvozlari uchun boshlang'ich poydevor bo'lib qoldi. Modal jaz uslubining mumtoz namunalari – bu M.Devisning "Muhim davrlar", "Shunday ekan" va "Flamenko eskizlari" nomli repertuaridagi pyesalardir.

Xardbopning yaqin qarindoshi bo'lgan soul jaz 1950yillarning o'rtalarida shakllanib, 1970-yillarda ham o'z faoliyatini davom ettirgan kichik, asosan organ cholg'usi jo'rligida ijro etuvchi mini-tarkiblar tomonidan namoyish etilgan. Blyuz va gospelga asoslangan soul-jaz musiqasi afro-amerikacha ruh bilan yo'g'rilgan.

Yehtimol jaz tarixidagi eng bahsli harakat erkin jazning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgandir. Zero, erkin jaz unsurlari jaz musiqiy strukturasi tashqarisida atamaning o'zi paydo bo'lmasdan avval mavjud bo'lib, Koulmen Xokins, Pi Vi Rassell va Lenni Tristano kabi novatorlarning "yekspertmentlari"da birmuncha original ko'rinish oladi, ammo 1950-yillar oxiriga kelibgina saksofonchi Ornett Koulman va pianinochi Sesil Teylorlarning say'-harakatlari bilan bu yo'nalish mustaqil uslub sifatida rasmiylashtiriladi.

Fundamental o'zgarish ritmika sohasida kuzatildi, unda "sving" yo qayta ko'rilgan, umuman e'tiborsiz qoldirilgan edi. Boshqacha qilib aytganda, pulsatsiya, metr va gruv endilikda jazni o'qishdagi ahamiyatli unsur hisoblanmas edi. Yana bir hal qiluvchi komponent atonallik bilan bog'liq edi. Endilikda musiqiy ibora odatiy tonal tizimda qurilmas edi. Chinqiroq notalar bu yangi tovush olamini to'liq egalladi. Erkin jaz bugungi kunda ham ifodaning hayotbaxsh shakli sifatida yashashda davom etmoqda, va hozirda u avvalgidek bahs-munozarali uslub sanalmaydi. Jazning nafaqat pop-musiqi va 1960-yillar roki, balki soul, fank va ritm-yend-blyuz kabi sohalar musiqasining o'zaro qo'shilishidan boshlangan fyujn (qorishma), musiqiy uslub sifatida 1960-yillarning oxirida dastlab jaz-rok nomi ostida paydo bo'ldi.

Fyujn atamasi amaliyotga “Maxavishnu Orkestri”, “Ob-havo” kabi rang-barang orkestrlar va Chik Korianing “Abadiy qaytish” nomli ansambli tashkil etilgandan so‘ng tez orada kirib keldi. Ushbu ansambllar musiqasida doimo improvizatsiya va ohangdorlikka urg‘u saqlanib qoldi, bu esa ularning amaliyotini jaz tarixi bilan bog‘ladi. 1970-yillar o‘rtalarida fyujn tinglash uchun yengil musiqa variantiga aylandi.

XULOSA

Tadqiqotimiz mazmunini tashkil etuvchi jaz san‘ati asoslari bilan tanishish oddiydan murakkabga, ma‘lumdan noma‘lumga harakat bilan tavsiflangan ketma-ket bosqichlar shaklida amalga oshirilishi turgan gap.

Yestrada jaz san‘ati bir qarashda qisqa vaqt, atiga bir asr davomida yaralib, rivoj topgan, yangilikka intilish, mukammallashuv yo‘lida sayqal topgan san‘at namunasidir.

Bugungi kun estrada jaz maktabi borasida so‘z borar ekan kun sayin jadallashib borayotgan ijtimoiy hayot tendensiyalari kabi zamonaviy musiqaga nisbatan ham oldindan aniq bir qolip asosida bashorat berishni imkoni yo‘q. Lekin shuni aniqlik bilan ayta olamizki, rivojlanib borayotgan inson intellekti imkoniyatlari istiqbollari cheksizligiga aminmiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Н.Аманова Жаз ва сстрада муסיқаси тарихи. Т.:2021й., 4 бет (1. N. Amanova History of jazz and pop music. T.:2021y., 4 pages)
2. Коллиер Дж. // Становление джаза: <http://www.brassmusic.ru>(2. Collier J. // Formation of Jazz:)
3. Большая российская энциклопедия. Электрон версияси.) <https://bigenc.ru/> (3. Great Russian Encyclopedia. Electron version)
4. Сапонов М.А. Менестрели // М.: Классика-XXI, 2004. — 400 с.: ил. (4. Saponov M.A. Minstrels // M.: Klassika-KhKhI, 2004. - 400 p.: ill.)
5. Конен В. // Рождение джаза. М. - изд: «Советский композитор», 1984. (5. Konen V. // Birth of Jazz. M. - ed.: "Soviet composer", 1984.)
6. Абидова Л. История джаза и современных музыкальных стилей: (краткие очерки) Уч. пособие. Ташкент.- изд. «Укитувчи»- 2007. (6. Abidova L. History of jazz and modern musical styles: (brief essays) Uch. allowance. Tashkent. - ed. "Ukituvchi" - 2007.)
7. Гилев С. Беседы о джазе .- Ташкент.- изд. «НФЛ», 2005.(Gilev S. Conversations about jazz. - Tashkent. - ed. "NFL", 2005.)
8. Королев О.К. Краткий энциклопедический словарь джаза, рок- и поп- музыки: термины и понятия/ изд. «Музыка».- Москва, 2006, 167с. (8. Korolev O.K. Brief encyclopedic dictionary of jazz, rock and pop music: terms and concepts / ed. "Music". - Moscow, 2006, 167p.)